EKOLOGIK INQIROZ TALQINI JEANETTE WINTERSONNING “THE STONE GODS” ASARIDA

Alimova Vaziraxon Baxtiyorovna
Buxoro davlat texnika universiteti
valimova@bstu.uz

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy tahlil Jeanette Wintersonning “The Stone Gods” romanini ekokritika, posthumanizm va postmodern nazariy yondashuvlar doirasida o‘rganadi. Tadqiqotda ekologik inqirozning falsafiy ildizlari, antropotsentrizm tanqidi, texnologik progress va uning paradoksal oqibatlari, shuningdek, tsiklik tarix konsepsiyasi tahlil qilinadi. Asar ekologik falokatni nafaqat tabiiy yoki iqtisodiy buzilish sifatida, balki inson ongining epistemologik va axloqiy inqirozi sifatida talqin etadi.*

Kalit so‘zlar*. Ekokritika, posthumanizm, antropotsentrizm, ekologik inqiroz, tsiklik tarix, Jeanette Winterson, The Stone Gods, texnologiya falsafasi, iqlim o‘zgarishi, postmodern roman.*

Abstract. *This article analyzes Jeanette Winterson’s novel The Stone Gods through the frameworks of ecocriticism, posthumanism, and postmodern theory. The study examines the philosophical foundations of ecological crisis, the critique of anthropocentrism, the paradoxes of technological progress, and the concept of cyclical history. The novel represents ecological collapse not merely as an environmental or economic issue, but as a structural crisis of human cognition and epistemology.*

Keywords. *Ecocriticism, posthumanism, anthropocentrism, ecological crisis, cyclical history, Jeanette Winterson, The Stone Gods, philosophy of technology, climate change, postmodern literature*.

Kirish. XX–XXI asr adabiyotida ekologik muammolar markaziy diskurslardan biri. Global iqlim o‘zgarishi, biosfera degradatsiyasi va sanoatlashuvning kengayishi badiiy adabiyotda ham falsafiy refleksiya obyekti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jeanette Wintersonning “The Stone Gods” romani ushbu tendensiyaning muhim namunasi hisoblanadi, unda insoniyatning o‘z-o‘zini yo‘q qilishga moyil sivilizatsion modeli badiiy-falsafiy konsepsiya darajasida ochib beriladi. Roman ilmiy-fantastik diskurs vositasida ekologik inqirozni vaqt va makon chegaralaridan

tashqariga chiqaradi. Natijada, ekologik buzilish bir martalik hodisa emas, balki takrorlanuvchi sivilizatsion model sifatida talqin qilinadi.

Asosiy qism. Winterson asarda ekologik inqirozni tashqi ekologik hodisa sifatida emas, balki inson tafakkur tizimining ichki strukturaviy muammosi sifatida tahlil qiladi. Ushbu yondashuvda asosiy kategoriya antropotsentrizm bo‘lib, u insonni borliq markaziga qo‘yuvchi epistemologik model sifatida namoyon bo‘ladi. Antropotsentrik paradigma yondashuvi ya’ni tabiatni va undagi barcha jarayonlarni inson va uning manfaatlari nuqtayi nazaridan tushunish, baholash va o‘rganish quyidagi tizimli oqibatlarni yuzaga keltiradi:

1. tabiatni instrumental resurs sifatida talqin qiladi
2. ekologik cheklovlarni konseptual jihatdan inkor etadi
3. texnologiyani mutlaq qutqaruvchi mexanizm sifatida ideallashtiradi

Roman mazmuniga ko‘ra, ekologik inqiroz texnik yetishmovchilik emas dunyoni bilish usulining buzilishi. Bu holat uni ekofalsafiy muammo sifatida qayta talqin qilishga asos bo‘ladi. Asarda uch asosiy narrativ qatlam mavjud, ular turli vaqt va makonlarda kechsada, bir xil sivilizatsion modelni takrorlaydi:

1. Orbus — yuqori texnologik rivojlangan jamiyat
2. Pasxa oroli — tarixiy ekologik kollaps modeli
3. Postapokaliptik kelajak — sivilizatsiyaning yemirilgan shakli

Ushbu struktura tarixiy sikllilik konsepsiyasini ifodalaydi. Tarix progressiv chiziq sifatida emas, balki takrorlanuvchi destruktiv sikl sifatida ko‘rsatiladi. Bu yondashuv ekologik nazariyadagi “resurs, ekspluatatsiya va kollaps” modeliga muvofiq keladi. Roman markazida “death denial” ya’ni o‘limni rad etish fenomeni turadi. Orbus jamiyatida texnologik taraqqiyot biologik cheklovlarni bekor qilishga qaratilgan. Bu holat bir qator falsafiy muammolarni yuzaga chiqaradi. Avvalambor tabiiylik va sun’iylik chegaralarining yo‘qoladi, so’ng abadiylik illuziyasining ideologik kuchga aylanadi, oxirida resurslardan cheksiz foydalanish normaga aylanadi

Winterson konsepsiyasiga ko‘ra, o‘limni inkor etuvchi ong ekologik muvozanatni ham inkor etadi, tabiiy sikllar tan olinmaydi. Spike va Billie obrazlari orqali muallif antropotsentrik subyektni dekonstruksiya qiladi va posthumanistik subyektivlik modelini taklif etadi. Spike bu sun’iy intellekt asosidagi mavjudot, u empatiyaga ega post-biologik subyekt va ekologik muvozanatni intuitiv anglaydigan tizim. Billie esa insoniy skeptitsizm va tanqidiy ong vakili, texnologik progressga nisbatan ambivalent pozitsiyaga ega, ekzistensial inqiroz bilan belgilangan subyektivlik mavjud unda. Ularning o‘zaro dialogi “inson” tushunchasining biologik

chegaralardan chiqib ketishi mumkinligi haqidagi posthumanistik savolni markazga olib chiqadi.

Romanda texnologiya ikki qirrali fenomen sifatida talqin qilinadi: sivilizatsion progress vositasi va ekologik kollapsni tezlashtiruvchi mexanizm. Genetik muhandislik va kosmik kolonizatsiya insoniyatni qutqarish o‘rniga yangi ekologik risklarni yaratadi. Bu holat texno-utopiya paradoksi sifatida tavsiflanadi, qutqarish maqsadidagi texnologiya o‘z-o‘zini yo‘q qilish mexanizmiga aylanadi. Ekokritik perspektivada tabiat romanda passiv fon emas, balki faol tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Planet Blue oddiy geografik makon emas, balki o‘z ekologik chegaralari va javob reaksiyasiga ega kompleks tizim. Bu yondashuv quyidagi xulosaga olib keladi: inson tabiat ustidan emas, balki uning ichki qismida mavjud subyekt hisoblanadi, ekologik inqiroz tashqi buzilish emas, balki tizim ichidagi disbalans.

Roman kompozitsiyasi spiral va fragmentar shaklda qurilgan. Takrorlanish syujet strukturasida, obrazlar tizimida va tarixiy modelning qayta ishlab chiqarilishida kuzatiladi. Bu struktura ekologik inqirozni vaqtinchalik hodisa emas, balki sivilizatsiyaning doimiy reproduktiv modeli sifatida ko‘rsatadi. Asarda ekologik inqiroz axloqiy kategoriya sifatida ham talqin etiladi. Insonning tabiatga munosabati uning ontologik va axloqiy pozitsiyasini belgilaydi. Spike o‘limni tabiiy jarayon sifatida qabul qilsa, Billie uni rad etadi. Ushbu qarama-qarshilik ekologik ongning ikki alternativ modelini ifodalaydi. Birinchisi qabul qilishga asoslangan ekologik realism va keyingisi inkorga asoslangan texno-optimistik pozitsiya. Tahlilda nazariy yo‘nalishlarga asos sifatida Greg Garrard ekokritika paradigmasi, Timothy Morton esa “dark ecology” konsepsiyasi, Donna Haraway posthumanistik subyektivlik bo’lsa, Bruno Latour aktor-tarmoq nazariyasi sifatida qo’llaniladi. Ushbu nazariyalar romanni keng interdisipliner kontekstga joylashtirish imkonini beradi.

Xulosa. “The Stone Gods” romani ekologik inqirozni ko‘p qatlamli, falsafiy va epistemologik hodisa sifatida ochib beradi. Asar asosiy xulosaga olib keladi: ekologik falokatning ildizi texnologiyada emas, balki insonning dunyoni tushunish usulida yotadi. Roman yakuniy yechim bermaydi, biroq markaziy savolni ochiq qoldiradi: insoniyat tsiklik destruktiv modelni buzib, yangi ekologik va posthumanistik ong shaklini yaratishga qodirmi yoki yo‘qmi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goodbody A., Johns-Putra A. (Eds.). Cli-fi: A Companion. – Peter Lang, 2018.

2. Haraway D. Staying with the Trouble: Making Kin in the Chthulucene. – Duke University Press, 2016.

3. Latour B. Politics of Nature: How to Bring the Sciences into Democracy. – Harvard University Press, 2004.

4. Morton T. Dark Ecology: For a Logic of Future Coexistence. – Columbia University Press, 2016.

5. Winterson J. The Stone Gods. – Penguin Books, 2007.